



**Samarqand davlat universitetning kattaqo‘rg‘on filiali Aniq va tabiiy  
fanlar fakulteti 1-bosqich Kimyo ta’lim yo‘nalishi talabalariga 1-semestr  
uchun “Umumiy fizika” fanidan yakuniy nazorat savollari**

**Imtihon shakli: yozma, og’zaki**

<b>Savolning tartib raqami (1-200)</b>	<b>Savolning qiyinlik darajasi</b>	<b>Savolning qanday mashg’ulotga tegishliligi</b>	<b>Mavzu nomeri</b>	<b>Savol matni</b>
1	2	1	1	Moddiy nuqta kinematikasi.
2	2	1	1	Moddiy nuqtaning ilgarilanma harakati.
3	3	1	1	Moddiy nuqta harakatining tezligi va tezlanishi.
4	3	1	1	Moddiy nuqtaning aylanma harakati.
5	2	1	1	Moddiy nuqtaning aylanma harakatini uzatish.
6	1	1	1	Aylanma harakatni tavsiflovchi fizik kattaliklar.
7	2	1	1	To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakat.
8	2	1	1	Butun olam tortishish qonuni.
9	1	1	1	To'g'ri chiziqli tekis harakat.
10	2	1	1	Harakatning nisbiyligi va tezliklarni qo'shish.
11	2	1	1	Gorizental otilgan jism harakati.
12	2	1	1	Erkin tushish.
13	2	1	1	Gorizantga qiya otilgan jism harakati.
14	2	1	1	Moddiy nuqtaning aylanma harakatida chiziqli tezlik va burchak tezlanish.
15	1	1	2	Vektorlar va ular ustida amallar.
16	1	1	2	To'g'ri chiziqli notejis harakat.
17	1	1	2	Egri chiziqli harakatda tezlik va tezlanish.
18	2	1	2	Aylana bo'ylab tekis harakat.
19	1	1	2	To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlik va tezlanish.

20	1	1	2	Ilgarilanma harakt.
21	1	1	2	Sanoq sistemasi.
22	1	1	2	Aylana bo‘ylab harakatda tezlanishlar.
23	1	1	2	Nyutonning birinchi qonuni.
24	1	1	2	Jismarning o‘zaro ta’siri. Massa.
25	2	1	2	Nyutonning ikkinchi qonuni. Kuch.
26	1	1	2	Nyutonning uchunchi qonuni.
27	2	1	2	Butun olam tortishish qonuni.
28	2	1	3	Kepler qonunlari.
29	1	1	3	Markazga intilma va qochma kuchlar.
30	1	1	3	Og‘irlilik va og‘irlilik kuchi.
31	1	1	3	Kosmik tezliklar.
32	1	1	3	Elastiklik kuchi.
33	1	1	3	Reaksiya kuchi.
34	1	1	3	Jismning og‘irligi va uning harakat turiga bog’liqligi.
35	1	1	3	Ishqalanish kuchi.
36	2	1	3	Qiya tekislikda ishqalanish kuchi.
37	2	1	3	Jismning ishqalanish kuchi ta’siridagi harakat.
38	2	1	3	Impuls.
39	2	1	3	Impulsning saqlanish qonuni.
40	2	1	3	Massa, zichlik va ularning birliklari.
41	2	1	3	Deformatsiya va uning turlari.
42	2	1	3	To‘qnashuvlar va uning turlari.
43	2	1	3	Mexanik energiya va uning turlari.
44	2	1	3	Mexanik ish.
45	2	1	3	Og‘irlilik kuchining ishi potensiyal energiya.
46	3	1	3	Aylanma harakat dinamikasi. Chiziqli va burchak tezliklari.
47	3	1	4	Dinamikaning asosiy vazifasi. Inersial sanoq sistemasi tushunchasi
48	2	1	9	Potensial (konservativ) va dissipativ (nokonservativ) kuchlar.
49	2	1	4	Tebranishlar.
50	1	1	4	Matematik va prujinali mayatniklar.

51	1	1	4	Quvvat. FIK
52	3	1	4	Bo'ylama va kondalang to'lqinlar.
53	2	1	4	Garmonik tebranishlar va uni xarakterlovchi parametrlar.
54	3	1	4	Energiyaning saqlanish qonuni.
55	1	1	4	Ishqalanish kuchining bajargan ishi.
56	1	1	3	Suyuqliklar mexanikasi. Bernulli tenglamasi.
57	1	1	3	Kuchlarni qo'shish.
58	1	1	3	To'lqinlar va ularning xossalari.
59	1	1	3	To'qnashuvlar. To'liq noelastik va elastik to'qnashuvlar.
60	1	1	3	Qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakat dinamikasi. Kuch momenti.
61	1	1	1	Qattiq jismning muvozanatlik shartlari.
62	1	1	3	Innersiya momenti.
63	1	1	3	Elastik to'lqinlarning tarqalish tezligi.
64	1	1	3	Impuls momenti.
65	1	1	3	Suyuqlik va gazning bosimi.
66	1	1	4	Paskal qonuni.
67	2	1	4	Gidrostatik bosim.
68	1	1	4	Arximed qonuni jismlarning suyuqlikda suzish shartlari.
69	1	1	4	Erkin tebranishlarning davri va chastotasi.
70	1	1	4	Mexanik to'lqinlar.
71	1	1	4	Tovush to`lqinlari.
72	1	1	4	Uzluksizlik teorimasi.
73	1	1	4	Gidrodinamik bosim..
74	1	1	4	Atmosfera bosimi.
75	2	1	4	Molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tasavvurlari..
76	1	1	3	Kapillyar hodisani.
77	1	1	3	Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi.
78	1	1	3	Atom va molekulalarni Broun harakati.
79	1	1	5	Moddaning turli agregat holatlari.
80	1	1	4	Ideal gazning bosimi

81	2	1	8	Temperatura va uning shkalalari.
82	2	1	4	Atom, molekula va ularning tuzulishi.
83	2	1	5	Modda miqdori. Molyar massasi. Avogadro soni.
84	2	1	5	Ideal gazning holat tenglamasi.
85	2	1	6	Izotermik jarayon va uning grafigi.
86	2	1	5	Izobarik jarayon va uning grafigi.
87	2	1	5	Izoxorik jarayon va uning grafigi.
88	2	1	6	Diffuziya va issiqlik o'tkazuvchanlik.
89	2	1	6	Klapeyron-Mendeleev tenglamasi. Universal gaz doimmiysi.
90	2	1	5	Ichki energiya va uning formulasi.
91	2	1	5	Issiqlik miqdori. Issiqlik sig'imi.
92	3	1	6	Solishtirma issiqlik sig'imi va uning birligi.
93	1	1	6	Solishtirma yonish issiqlik sig'imi va uning birligi.
94	2	1	7	Solishtirma erish issiqlik sig'imi va uning birligi.
95	1	1	7	Solishtirma bug'lanish issiqlik sig'imi va uning birligi.
96	3	1	7	Termodinamik ish tushunchasi.
97	2	1	8	Termodinamikaning birinchi qonuni.
98	2	1	8	Termodinamikaning ikkinchi qonuni.
99	2	1	8	Issiqlik mashinalari va ularning foydali ish koeffitsienti.
100	1	1	8	Qattiq jismlarning erishi va qotishi.
101	2	1	9	Qaytar va qaytmas jarayonlar
102	3	1	9	Adiabatik jarayon.
103	2	1	9	Karno sikli va uning grafigi.
104	2	1	9	Van-der-Vals tenglamasi.
105	2	1	9	Bug'lanish va kondensatsiya.
106	2	1	8	Termodinamikaning uchinchi qonunini.
107	2	1	8	Termodinamik jarayonlar. Issiqlik muvozanati.
108	3	1	8	Suyuqliklarning issiqlikdan kengayishi..
109	1	1	9	Suyuqliklarda sirt hodisalari. Sirt tarangligi.

110	1	1	10	Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi.
111	1	1	10	Tezlik va o’rtacha tezliklar.
112	1	1	10	Tezlanish grafigi va birligi.
113	1	1	10	Burchak tezlik va aylanish davri..
114	1	1	10	Gravitatsiya doimiysi va uning fizik mohiyati.
115	1	1	10	Absolyut qattiq jism va moddiy nuqtalar sistemasi.
116	1	1	10	chiziqli tezlik va aylanish davri orasida bog‘lanish.
117	1	1	10	Tangensial tezlanish.
118	1	1	10	Fundamental zarralar.
119	1	1	10	Tekis sekinlanuvchan harakat.
120	1	1	10	Trektoziya, yo’l, ko’chishlarga ta’rif bering.
121	2	2	16	20 m/s tezlikda yuruvchi tovar poyezdi stansiyadan yo’lga chiqdi. Oradan 10 daqiqa o’tib xuddi o’sha yo’nalishda tezligi 30 m/s bo’lgan ekspress yo’lga chiqdi. Stansiyadan qanday masofada (km da) ekspress tovar poyezdini quvib yetadi?
122	2	2	16	Koptok 3 m balandlikdan tushib, poldan sapchidi va 1 m balandlikka ko’tarilganda tutib olindi. Koptok o’tgan yo’l uning ko’chish modulidan necha marta katta?.
123	3	2	16	Samolyot to’g’ri yo’nalishda 600 km uchdi, so’ngra to’g’ri burchak ostida burilib yana 800 km uchdi. Samolyotning ko’chish vektori moduli qanchaga (km da) teng?
124	3	2	11	Qayiqning suvgaga nisbatan tezligi daryo oqimining tezligidan ikki marta katta. Ikki punkt orasida oqimga qarshi suzib borish oqim bo’ylab borishga qaraganda necha marta ko’p vaqt oladi?
125	3	2	11	Dastlabki 5 soat davomida poyezd o’rtacha 60 km/h tezlikda harakatlandi, keyin esa 4 soat davomida 15 km/h tezlik bilan. Butun harakat davomida poyezdning o’rtacha tezligini toping.
126	3	2	11	Velosipedchi 12 km/h tezlikda 4 km masofani o’tib to’xtadi va 40 daqiqa dam oldi. Qolgan 8 km yo’lni u 8 km/h tezlikda o’tdi. Velosipedchining butun yo’ldagi o’rtacha tezligini (km/h da)toping?

127	3	2	11	Velosipedchi dastlabki 5 s da 35 m yo'1 o'tdi, keyingi 10 s da 100 m va oxirgi 5 s da 25 m. Butun yo'ldagi o'rtacha harakat tezligini toping.
128	3	2	11	Avtomobil tekis tezlanuvchan harakatlanib, harakat boshlanganidan 10 s o'tib 36 km/h tezlikka erishdi. Uning tezlanishini toping.
129	3	2	11	Tinch holatidan boshlab 6 m/s 2 tezlanish bilan harakatlanayotgan raketa 75 m yo'lda qanday tezlik oladi?
130	3	2	16	Jism vertikal yuqoriga 20 m/s tezlik bilan otildi. Jismning harakat boshidan 3 s ichida o'tgan yo'lini toping. $g=10\text{m/s}^2$ .
131	3	2	11	20 s davomida raketa doimiy 0.8g tezlanish bilan ko'tariladi-da, uning dvigatellari o'chiriladi. Shundan so'ng qancha vaqt o'tib raketa yerga tushadi?
132	3	2	10	Samolyot 8 km balandlikda 900 km/h tezlik bilan gorizontal uchmoqda. Mo'ljalga necha kilometr qolganda uchuvchi bombani tashlashi kerak? $g=10\text{m/s}^2$ .
133	2	2	10	Bir g'ildirak sekundiga 50 marta aylanib tekis aylanmoqda. Ikkinci g'ildirak tekis aylana turib 30 sekundda 500 marta aylanmoqda. Birinchi g'ildirakning burchak tezligi ikkinchisiniidan necha marta katta?
134	2	2	11	Doimiy kuch ta'sirida harakatlana boshlagan 6 kg massali jism birinchi sekundda 15 m yo'1 o'tdi. Kuchning miqdorini aniqlang.
135	2	2	11	60 N kuch jismga $0,8 \text{ m/s}^2$ tezlanish beradi. Qanday kuch shu jismga $2 \text{ m/s}^2$ tezlanish beradi?
136	2	2	11	36 km/h tezlik bilan harakatlanib kelgan 2 t massali avtomobil tormozlash boshidan 25 m yo'1 o'tib to'xtadi. Tormozlovchi kuch miqdorini (kN da) aniqlang.
137	2	2	11	2 kg massali jism vertikal yuqoriga og'irlilik kuchi tezlanishidan ikki marta katta tezlanish bilan ko'tarilishi uchun unga qanday kuch bilan ta'sir qilish kerak? $g=10\text{m/s}^2$ .
138	2	2	11	YPX xodimi avtomobilning asfalt yo'lidagi tormozlanish izi 40 m ga teng ekanligini aniqladi. G'ildiraklarning asfaltga ishqalanish koefitsiyenti 0,5

				bo'lsa, avtomobil qanday tezlik bilan (km/h da) harakatlangan?
139	2	2	11	1 kg massali jism gorizontal tekislikda joylashgan. Jismga 2 N gorizontal kuch ta'sir qiladi. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,3 bo'lsa, ishqalanish kuchini aniqlang.
140	2	2	11	500 N maksimal tortish kuchiga ega bo'lgan itlar galasi qanday maksimal massali chanani (yuki bilan birga) gorizontal yo'lida tekis torta oladi? Ishqalanish koeffitsiyenti 0,1. $g=10\text{m/s}^2$ .
141	2	2	11	Bir-biri bilan tegishib turgan ikkita bir xil, bir jinsli sharlar bir-biridan sharlarning diametriga teng masofaga uzoqlashtirilsa, ularning tortishish kuchi necha marta kamayadi?
142	2	2	11	20 va 30 cm radiusli ikki shar bir-biriga tegib turadi. Agar ulardan birini 100 cm masofaga uzoqlashtirilsa, sharlar orasidagi tortishish kuchi necha marta kamayadi?
143	2	2	8	Massasi 2 t bo'lgan avtomobil egrilik radiusi 100 m bo'lgan qavariq ko'priq ustida 72 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Mashina ko'priq markazidan o'tayotib uni qanday kuch bilan (kN da) bosadi? $g=10 \text{ m/s}^2$ .
144	2	2	11	1 va 2 kg massali sharchalar mos ravishda 4 m/s va 6 m/s tezliklar bilan bir-biriga parallel ravishda bir yo'nalish bo'ylab harakatlanadi. Bu ikki sharchaning natijaviy impulsi qanchaga teng?
145	2	2	11	2 kg massali bir xil ikkita sharcha bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadi. Bir sharchaning tezligi 3 m/s, ikkinchisiniki 7 m/s. Ikkala sharchaning natijaviy impulsining qiymatini toping.
146	2	2	11	Quroldan 600 m/s tezlik bilan snaryad uchib chiqadi. Agar porox gazlarining o'rtacha bosim kuchi 2700 kN ga teng bo'lsa va snaryad stvol ichida 0,002 s harakatlansa, snaryadning massasini aniqlang.
147	2	2	16	2 m/s tezlik bilan uchayotgan 100 g massali to'p uchish paytida ushlab olindi. Agar to'p 0,02 s ichida to'xtagan bo'lsa, to'pning qo'lga urilishidagi o'rtacha kuch qanday bo'ladi?

148	2	2	16	5 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan 200 g massali shar xuddi shu yo'nalishda 4 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan 300 g massali shar bilan absolyut noelastik to'qnashadi. Sharlarning to'qnashuvdan keyingi tezligini (cm/s da) toping.
149	2	2	16	Ikki jismning har biri 3 m/s tezlik bilan bir-biriga qarab harakatlanib, o'zarlo to'qnashgandan keyin 1,5 m/s tezlik bilan birga harakatlana boshladи. Ular massasining nisbatini toping.
150	2	2	11	2 kg massali jismni 3 m/s <sup>2</sup> tezlanish bilan 1 m balandlikka ko'tarishda kishi qanday ish bajaradi? $g=10\text{m/s}^2$ .
151	2	2	11	10 kg massali jism qiya tekislik bo'ylab 6 m balandlikdan tushadi. Og'irlilik kuchining bajargan ishini toping. $g=10\text{m/s}^2$ .
152	2	2	8	Il-62 samolyoti har birining tortish kuchi 100 kN bo'lган to'rt dvigatelga ega. Samolyotning 240 m/s tezligida dvigatellarning umumiy foydali quvvati (kW da) qanday?
153	2	2	8	Jism qandaydir balandlikdan 10 m/s tezlik bilan gorizontal otilgan. Necha sekunddan keyin jismning kinetik energiyasi ikki marta ortadi? $g=10\text{m/s}^2$ .
154	2	2	8	Qandaydir balandlikdan 20 m/s tezlik bilan tosh gorizontal otildi. Otishdan 4 s o'tib toshning kinetik energiyasi 3000 J ga teng bo'ldi. Toshning massasi qanday? $g=10\text{m/s}^2$ .
155	2	2	7	30 m balandlikdagi minoradan tosh gorizontal otildi. Harakat boshlanganidan 2 s o'tgandagi toshning potensial energiyasini toping. Toshning massasi 0,2 kg. Yer yuzasidagi potensial energiya nolga teng. $g=10\text{m/s}^2$ .
160	2	2	7	10 kN/m bikrlikli siqilgan prujina 50 J ga teng potensial energiya zahirasiga ega. Prujina necha santimetrga siqilgan?
161	2	2	1	Agar 30 N kuch ta'siri ostida prujina 1 cm ga siqilsa, uni 20 cm ga siqish uchun bajarilishi kerak bo'lган ishni toping.
162	2	2	1	6 m/s tezlikka ega 2 kg massali shar massasi 1 kg bo'lган harakatsiz turgan shar bilan to'qnashadi. Urilishni markaziy va absolyut elastik hisoblab, ikkinchi sharning to'qnashuvdan keyingi tezligini

				toping.
163	2	2	1	20 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan 400 g massali to'p yerga 15 m/s tezlik bilan tushdi. Havoning qarshilik kuchini yengishga sarflanadigan ishni aniqlang.
164	2	2	2	O'zaro ulangan ikkita dinamomertrga og'irligi 8 N bo'lган yuk osilgan. Har bir dinamometrning og'irligi 2 N. Yuqoridagi dinamometr necha nyutonni ko'rsatadi?
165	2	2	2	Og'irligi 700 N bo'lган odam 400 N og'irlikdagi yukni tekis ko'taradi. Odam polga qanday kuch bilan bosadi?
166	2	2	4	12 N og'irlikdagi quvur yerda yotibdi. Uning bir uchidan ko'tarish qo'yish uchun qanday kuch qo'yish kerak?
167	2	2	2	Suv ustuning bosimi $10^5$ Pa. Suv ustuning balandligini aniqlang. $g=10\text{m/s}^2$ .
168	2	2	4	Qanday chuqurlikda suvning bosimi 100 kPa ga teng bo'lган atmosferik bosimdan 3 marta katta bo'ladi? $g=10\text{m/s}^2$ .
169	2	2	7	Suvda to'liq cho'kkан, $0,5 \text{ m}^3$ hajmli toshga ta'sir etadigan itarib chiquvchi kuchni (kN da) aniqlang. $g=10\text{m/s}^2$ .
170	2	2	7	$1,204 \cdot 10^{24}$ ta molekuladan tashkil topgan jismning modda miqdori qanday? Avagadro soni $6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ .
171	2	2	3	<b>3·10<sup>23</sup></b> ta azot molekulasi qanday massaga (g da) ega? Azotning molyar massasi 28 g/mol. Avagadro soni <b>6,02·10<sup>23</sup></b>
172	2	2	3	50 mol kislороднинг massasi (g da) qanday? Kislороднинг molyar massasi 32 g/mol.
173	2	2	2	2 mol ideal gazning $270^\circ\text{C}$ temperaturadagi to'liq ilgarilanma harakat kinetik energiyasi qanday bo'ladi? Universal gaz doimiysi $8,31 \text{ J/(mol.K)}$ .
174	2	2	3	Gazning hajmi uning $0^\circ\text{C}$ dagi hajmidan ikki marta katta bo'lishi uchun uni o'zgarmas bosimda necha gradusga qizdirish kerak?
175	2	2	4	Gaz temperaturasi 286 K dan 326 K gacha o'zgarganda bosim 20 kPa ga ortdi. Gazning dastlabki bosimini (kPa) toping. Jarayon izoxor.
176	2	2	4	Gaz $5 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ bosimda $2 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$

				hajmni egallaydi. Xuddi shu temperaturada, lekin $1 \text{ m}^3$ hajmda gaz qanday bosim ostida bo'ladi? Javobni atmosferada ifodalang ( $1 \text{ atm} = 10^5 \text{ Pa}$ ).
177	2	2	5	Gazning hajmi 7 marta oshirilganda bosim 10 marta kamayishi uchun uning absolyut temperaturasini necha foizga kamaytirish kerak?
178	3	2	5	$0,06 \text{ m}^3$ sig'imli ballon ichida $270 \text{ }^\circ\text{C}$ temperaturada $8.3 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosim ostida joylashgan vodorodning massasini ( $\text{g da}$ ) aniqlang. Vodorodning molyar massasi $2 \text{ kg/kmol}$ , universal gaz doimiysi $8300 \text{ J/(kmol.K)}$ .
179	3	2	1	Ballonda qandaydir gaz bor edi. Gazning bir qismini chiqarib yuborgandan keyin ballondagi gazning temperaturasi 3 marta, bosim esa 4 marta kamaydi. Gazning qanday qismi (foizlarda) chiqarib yuborilgan?
180	3	2	3	Qanday massali simobning issiqlik sig'imi $13 \text{ kg spirtning issiqlik sig'imi}$ teng? Spirtning solishtirma issiqlik sig'imi $2440 \text{ J/(kg.K)}$ , simobning solishtirma issiqlik sig'imi $130 \text{ J/(kg.K)}$ .
181	3	2	2	$400 \text{ W}$ quvvatli elektromotor $50 \text{ s}$ to'xtovsiz ishlash davomida $10 \text{ K}$ ga qiziydi. Motoring FIK (foizlarda) qanchaga teng? Motoring issiqlik sig'imi $500 \text{ J/K}$ .
182	3	2	2	$0^\circ\text{C}$ haroratda olingan qancha muzni $0,66 \text{ MJ}$ energiya yordamida eritish mumkin? Muzning solishtirma erish issiqligi $330 \text{ kJ/kg}$ .
183	3	2	4	Erish haroratidagi $100 \text{ kg}$ po'latning qotish jarayonida $21 \text{ MJ}$ issiqlik ajraldi. Po'latning solishtirma erish issiqligi ( $\text{kJ/kg da}$ ) qanday?
184	3	2	4	$0,1 \text{ kg}$ qaynayotgan suv bug'ga aylanishi uchun qanday miqdordagi issiqlik ( $\text{kJ da}$ ) kerak? Suv bug'lanishining solishtirma issiqligi $2,26 \text{ MJ/kg}$ .
185	2	2	2	$0,2 \text{ kg}$ suv bug'inining $100^\circ\text{C}$ haroratda kondensatsiyalanishida qancha issiqlik ( $\text{kJ da}$ ) ajraladi? Suv bug'lanishining solishtirma issiqligi $2,3 \text{ MJ/kg}$ .

186	2	2	2	<p><math>0^{\circ}\text{C}</math> da olingan 1 kg suvni <math>100^{\circ}\text{C}</math> gacha qizdirish va to'liq bug'ga aylantirish uchun unga qanday issiqlik miqdori (kJ da) berish kerak? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi <math>4200 \text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})</math>, suv bug'lanihining solishtirma issiqligi <math>2,3 \text{ MJ}/\text{kg}</math>.</p>
187	2	2	5	<p>Qandaydir massali suvni <math>0^{\circ}\text{C}</math> dan <math>100^{\circ}\text{C}</math> gacha qizdirish uchun <math>8400 \text{ J}</math> issiqlik talab etiladi. Shu suvni to'liq bug'lantirish uchun yana qancha issiqlik (kJ da) talab qilinadi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi <math>4200 \text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})</math>, suv bug'lanihining solishtirma issiqligi <math>2,3 \text{ MJ}/\text{kg}</math>.</p>
188	2	2	4	<p>Suvni muzlatgichda <math>33^{\circ}\text{C}</math> dan <math>0^{\circ}\text{C}</math> gacha sovutish uchun 21 minut vaqt sarflandi. Endi shu suvni muzga aylantirish uchun qancha vaqt (minutda) talab etiladi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi <math>4200 \text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})</math>, muzning solishtirma erish issiqligi <math>330 \text{ kJ}/\text{kg}</math>.</p>
189	2	2	5	<p><math>50 \text{ m/s}</math> tezlikka ega bo'lgan o'q devorga noelastik urilish natijasida <math>10^{\circ}\text{C}</math> ga qizidi. Urilishda ajralgan barcha energiyani o'q olgan deb hisoblab, o'q materialining solishtirma issiqlik sig'imini toping.</p>
190	2	2	5	<p>Ikkita bir xil o'q devorga kelib uriladi. Birinchi o'q <math>0,5 \text{ K}</math> ga, ikkinchisi esa <math>8 \text{ K}</math> ga qiziydi. Agar o'qlarning barcha energiyasi ularning qizishiga sarflansa, ikkinchi o'qning tezligi birinchisiniidan necha marta katta?</p>
191	2	2	5	<p><math>100 \text{ J}</math> kinetik energiyaga ega bo'lgan o'q devorga urildi va <math>0,5 \text{ K}</math> ga qizidi. Agar o'qning issiqlik sig'imi <math>20 \text{ J/K}</math> ga teng bo'lsa, o'q energiyasining qanday qismi (foizlarda) uni qizdirish uchun sarflangan?</p>
192	2	2	5	<p>Solishtirma issiqlik sig'imi <math>450 \text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})</math> bo'lgan moddadan tayyorlangan ikkita bir xil sharcha <math>40 \text{ m/s}</math> va <math>20 \text{ m/s}</math> tezliklar bilan bir-biriga tomon harakatlanmoqda. Noelastik to'qnashuv natijasida ular necha</p>

				gradusga qizishini aniqlang.
193	2	2	5	O'zgarmas 3 kPa bosimda gazning hajmi 7 l dan 12 l gacha ortdi. Gaz qanday ish bajargan?
194	2	2	5	Qo'zg'aluvchan porshenli silindrdaq gaz 100 kPa o'zgarmas bosimda kengayib, 100 kJ ish bajaradi. Bunda gazning hajmi qanday miqdorda o'zgardi?
195	2	2	5	Haroratning izobar ravishda 10 K ga ortishida ikki mol gaz qanday ish bajaradi? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol·K).
196	3	2	7	Bir mol gaz izoxor ravishda bosimi 5 marta kamayguncha sovutildi. So'ngra 400 K boshlang'ich haroratgacha izobar qizdirildi. Gaz qanday ish bajargan? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol·K).
197	3	2	7	Gaz qizdirilganda uning ichki energiyasi 300 J dan 700 J gacha ortdi. Agar gazni qizdirish uchun 1000 J issiqlik sarflangan bo'lsa, gaz qanday ish bajargan?
198	3	2	7	Gaz izoxor qizdirilganda uning ichki energiyasi 200 J dan 300 J gacha ortdi. Gazni qizdirish uchun qanday miqdordagi issiqlik sarflangan?
199	3	2	7	Gaz izotermik jarayonda 200 J issiqlik oldi. Shundan so'ng adiabatik jarajonda gaz birinchi jarayondagiga qaraganda ikki marta ko'p ish bajardi. Shu ikki jarayonda gazning ichki energiyasi qanchaga kamaygan?
200	3	2	7	Ideal gazni 0,1 MPa o'zgarmas bosimda qizdirishda 700 J issiqlik sarflandi. Natijada gazning hajmi 0,001 m <sup>3</sup> dan 0,002 m <sup>3</sup> gacha ortdi, ichki energiyasi esa 800 J ga teng bo'ldi. Gazning dastlabki ichki energiyasi qancha bo'lган?